

XORIJIY MAMLAKATLAR MISOLIDA KRAUDFANDING PLATFORMALARI VA ULARNING AMALIYOTDAGI QO'LLANILISH TAMOYILLARI

Saidov Firdavs

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

ORCID: 0009-0001-5787-3940

saidov.firdavs.nuriddin@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlaridan biri bo'lgan kraudfanding tizimining xorijiy davlatlardagi qo'llanilish tajribalari va ularning ishlash tamoyillari tahlil qilingan. Tadqiqotda AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Xitoy kabi mamlakatlar misolida kraudfanding platformalarining asosiy turlari – xayriya, mukofot asosida, qarz va aksiyadorlik shakllari o'rganildi. Shuningdek, ushbu platformalarning moliyaviy vosita sifatida afzalliklari, xavf-xatar omillari hamda huquqiy-institutsional asoslari tahlil etildi. Tadqiqot natijalari kraudfandingning moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashdagi rolini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kraudfanding, platforma, alternativ moliyalashtirish, fintex, xalqaro tajriba, moliyaviy texnologiyalar.

КРАУДФАНДИНГОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ И ПРИНЦИПЫ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ НА ПРАКТИКЕ НА ПРИМЕРЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Саидов Фирдавс

Высшая школа бизнеса и предпринимательства при

Кабинете Министров Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности применения краудфандинга как современного механизма финансирования на примере зарубежных стран. В исследовании проанализированы основные типы краудфандинговых платформ — благотворительные, вознаграждаемые, долговые и долевыe — на примере таких стран, как США, страны Европейского союза и Китай. Также раскрыты преимущества краудфандинга как финансового инструмента, возможные риски, а также правовые и институциональные основы его функционирования. Результаты исследования обосновывают роль краудфандинга в повышении финансовой инклюзии и поддержке инновационных проектов.

Ключевые слова: краудфандинг, платформа, альтернативное финансирование, финтех, международный опыт, финансовые технологии.

CROWDFUNDING PLATFORMS AND PRINCIPLES OF THEIR APPLICATION IN PRACTICE ON THE EXAMPLE OF FOREIGN COUNTRIES

Saidov Firdavs

*Graduate School of Business and Entrepreneurship under the
Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. *This article examines the features of crowdfunding as a modern financing mechanism based on the experience of foreign countries. The study analyzes the main types of crowdfunding platforms — donation-based, reward-based, loan-based, and equity-based — using the examples of countries such as the United States, European Union member states, and China. The article also highlights the advantages of crowdfunding as a financial instrument, potential risks, and the legal and institutional frameworks for its operation. The research findings substantiate the role of crowdfunding in enhancing financial inclusion and supporting innovative projects.*

Keywords: *crowdfunding, platform, alternative financing, fintech, international experience, financial technologies.*

Kirish.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va moliyaviy texnologiyalarning (fintex) keng joriy etilishi natijasida kapital jalb qilishning an'anaviy shakllariga muqobil bo'lgan yangi vositalar vujudga keldi. Ana shunday innovatsion yondashuvlardan biri bu – kraudfanding (crowdfunding) tizimidir. Ushbu model investorlar va loyihani moliyalashtirish istagida bo'lgan shaxslar o'rtasida vositachilarsiz, ochiq onlayn platformalar orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqani yo'lga qo'yish imkonini beradi. Kraudfanding bugungi kunda nafaqat startup loyihalar va kichik biznes subyektlari uchun, balki ijtimoiy, madaniy va ilmiy tashabbuslarni moliyalashtirishda ham muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kraudfanding platformalari turli moliyalashtirish mexanizmlari – xayriya (donation-based), mukofot evaziga (reward-based), qarz asosidagi (loan-based) va aksiyadorlik (equity-based) shakllarida faoliyat yuritib, iqtisodiyotning turli segmentlarida samarali natijalar bermoqda. AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Xitoy va boshqa rivojlangan davlatlarda kraudfanding qonunchilik bilan mustahkamlangan bo'lib, tegishli nazorat va himoya mexanizmlari asosida investitsiyalar xavfsizligini ta'minlab kelmoqda. Mazkur davlatlarda ushbu model nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki ijtimoiy kapitalni shakllantirish, fuqarolik faolligini rag'batlantirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ham e'tirof etilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Kraudfanding moliyalashtirishning innovatsion shakli sifatida G'arbiy iqtisodiy va boshqaruv maktablari tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilingan. Ushbu modelning nazariy asoslari, uning iqtisodiy samaradorligini anglashda muhim vosita hisoblanadi. Jumladan, Miglo (2021) tomonidan ilgari surilgan qarashlarga ko'ra, "kraudfanding – bu axborot asimmetriyasi va axloqiy xatarlar bilan bog'liq moliyaviy muhitda ishonchni tiklovchi mexanizmdir". U investorlarga loyiha haqida to'liq ma'lumot olish imkonini beradigan shaffof platformalar orqali resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Alegre va Moleskis (2016) kraudfandingni mukofotli, aksiyaviy, qarz va xayriya asosidagi turlarga ajratgan holda, har bir modelning muvaffaqiyat omillarini boshqaruv nazariyalari nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Ularning tadqiqotlari kraudfandingni keng turdagi moliyaviy strategiyalarni o'zida mujassam etgan murakkab tizim sifatida tushunishga asos yaratadi.

Jovanovic (2019) esa ushbu modelga kengroq ijtimoiy yondashuv bilan qaraydi. Uning ta'kidlashicha, "kraudfanding nafaqat kapitalni safarbar etadi, balki iqtisodiy demokratiya va jamoaviy ishtirokni kuchaytiradi". U bu mexanizmni ijtimoiy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida baholaydi.

Matusik va Jones (2019) o'z izlanishlarida kraudfanding muvaffaqiyatini insoniy motivatsiya va shaxsiy aloqalar bilan bog'laydi. Ular buni "maxsulotga qiziqish" va "shaxsga sodiqlik" tamoyillari orqali tushuntiradi, bu esa kraudfandingni oddiy moliyaviy vosita emas, balki ijtimoiy dinamika bilan boyitilgan tizim sifatida tasvirlaydi.

Boshqa bir guruh olimlar esa kraudfandingni notijorat sektoridagi muvaffaqiyatli moliyaviy vosita sifatida tavsiflaydilar. Ularning tadqiqotiga ko'ra, ijtimoiy maqsadlarga qaratilgan loyihalar keng omma tomonidan qo'llab-quvvatlanishga moyil bo'lib, bu kraudfandingning filantropik salohiyatini ifodalaydi (Belleflamme va boshq., 2013).

G'arb olimlarining tadqiqotlari kraudfandingni moliyaviy, institutsional va ijtimoiy jihatlarida ko'rib chiqadi. Bu esa uning nazariy asoslarini yanada boyitib, zamonaviy iqtisodiyotda unga kompleks moliyaviy mexanizm sifatida qarashga imkon yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola ijtimoiy tadbirkorlik haqidagi nazariy bilimlarga asoslangan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, induksiya, deduksiyanidan foydalangan holda ilmiy natijalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorijiy olimlar tomonidan kraudfandingning mohiyatini tushunishga qaratilgan nazariy yondashuvlarni umumlashtirish asosida kraudfandingga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq. Kraudfanding – bu investitsiya faoliyatining innovatsion shakli bo'lib, u raqamli platformalar orqali tashabbuskor subyektlarga keng jamoatchilikdan moliyaviy va boshqa turdagi resurslarni jalb qilish imkonini beruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu model, ixtisoslashtirilgan internet platformalari vositasida, ma'lum maqsadga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun ko'plab kichik ishtirokchilarning sarmoyaviy hissasini birlashtirishga asoslanadi. Shu tariqa, kraudfanding an'anaviy moliyalashtirish vositalaridan farqli o'laroq, ochiq, inklyuziv va vositachilarsiz moliyaviy o'zaro hamkorlik muhitini shakllantiradi.



1-rasm. Kraudfandingni ishlash prinsipi

Kraudfandingning asosiy printsiplari shundaki, har bir ishtirokchi kichik hissa qo'shishi mumkin, bu esa oxir-oqibat katta miqdordagi pulni jamlash imkonini beradi (1-rasm). Keltirilgan rasmda kraudfandingning ishlash prinsiplari tavsiflanagan bo'lib, u loyiha boshlab, uning moliyalashtirilishi, amalga oshirilishi va hisobot berishgacha bo'lgan to'liq siklni qamrab oladi. Ushbu davriy jarayon kraudfanding modelining shaffoflik, ishonch va natijaviylik tamoyillariga asoslanishini ko'rsatadi. Har bir bosqich izchil rejalashtirilgan bo'lishi kraudfanding kompaniyasining muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Dunyo miqyosida faoliyat yuritayotgan kraudfanding platformalarining amaliy tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu moliyaviy mexanizm asosan ikki asosiy modelga bo'linadi: moliyaviy bo'lmagan (non-financial) va moliyaviy (financial) kraudfanding. Har ikkala model o'z funksional yo'nalishlari va ishtirokchilar motivatsiyasiga ko'ra farqlanadi. Moliyaviy bo'lmagan modelda investor (yoki homiy) hech qanday moddiy daromad yoki moliyaviy mukofot kutmasdan, gumanistik, ijtimoiy yoki shaxsiy qadriyatlarga asoslangan motivatsiya bilan loyiha tashabbuskorini qo'llab-quvvatlaydi. Aksincha, moliyaviy model esa homiy tomonidan to'g'ridan-to'g'ri daromad olishni ko'zlaydi.

Moliyaviy bo'lmagan model ichida ikki asosiy tur ajratiladi. Birinchisi, xayriya (donorlik) kraudfandingi – bunda ishtirokchi beg'araz asosda mablag' ajratadi va hech qanday mukofot kutmaydi. Ushbu yondashuv ko'pincha ijtimoiy, ekologik yoki insonparvarlik yo'nalishidagi tashabbuslarda qo'llaniladi. Bunda homiy uchun eng asosiy motivatsiya – axloqiy qoniqish va jamiyatga foyda keltirish hissi. Ikkinchisi, mukofotli (klassik) kraudfanding – bunda tashabbuskor moliyaviy qo'llab-quvvatlash evaziga homiy uchun mahsulot, xizmat yoki boshqa shakldagi mukofotni taklif qiladi. Bu model tadbirkorlikni boshlash uchun muqobil moliyalashtirish vositasi bo'lib, qo'shimcha aksiyadorlik yoki qarz jalb etmasdan biznes yuritish imkonini beradi.

Moliyaviy model esa quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

Aksiyaviy kraudfanding (kraudinvesting) – bu modelda investor kompaniyaning ma'lum ulushini sotib oladi, ya'ni biznesga egalik qiladi. Ushbu model ko'pincha startaplar yoki dastlabki bosqichdagi loyihalarga xosdir.

Kreditli kraudfanding (kraudlending yoki P2P kreditlash) – bu model moliyaviy munosabatlarni bank krediti shakliga yaqinlashtiradi: investorlar loyihani moliyalashtiradi va ular foiz bilan qaytariladigan qarz shaklida daromad oladi. O'z navbatida kreditli modelni ham quyidagi ikki asosiy shakli mavjud, bular: an'anaviy qarz shartnomasi va shartli qarz. An'anaviy qarz shartnomasi – oldindan belgilangan foiz stavkasi bilan mablag' ajratiladi va loyiha muallifi ularni belgilangan muddatda qaytaradi. Shartli (kechiriladigan) qarz – qarz faqat loyiha foyda keltira boshlaganidan so'ng qaytariladi.

Bundan tashqari, har ikkala modelda keng qo'llaniladigan universal mexanizmlar mavjud. Jumladan, "Hammasi yoki hech narsa" (All-or-nothing) – bunda mablag' yig'ilishi faqat to'liq maqsadli summa yig'ilganda amalga oshadi. Hamda, "Yig'ilgan mablag'ni saqlab qolish" (Keep-it-all) – bunda tashabbuskor belgilangan miqdorga yetmasa ham, yig'ilgan mablag'ni olishi mumkin. Umumiy klassifikatsiya ikki asosiy modelga – pulsiz (non-financial) va pulli (financial) shakllarga bo'linadi.

Pulsiz model tarkibida xayriya va klassik (bonusli) kraudfanding turlari ajratiladi. Xayriya asosidagi shaklda investorlar (yoki donorlar) loyihani moliyalashtirish evaziga hech qanday mukofot kutmaydi, ular asosan shaxsiy e'tiqod, empatiya yoki ijtimoiy mas'uliyat asosida harakat qilishadi. Bu shakl ijtimoiy, ekologik va gumanitar yo'nalishdagi tashabbuslar uchun mos keladi. Klassik kraudfandingda esa loyihani moliyalashtirgan ishtirokchilar mukofot sifatida mahsulot, xizmat yoki nomoddiy rag'batga ega bo'ladilar. Ushbu modelda motivatsiyalar kombinatsiyalangan bo'lib, u shaxsiy manfaat va mukofot olish istagiga tayanadi.

Pulli model tarkibida esa kraudinvesting (aksionerlik) va kraudlending (kreditli) turlari ajratilgan. Kraudinvesting modelida investor kompaniyaning ulushiga egalik qiladi va uning


muvaffaqiyatiga ko'ra foyda oladi. Ushbu shakl startaplar va innovatsion loyihalarning dastlabki bosqichida keng qo'llaniladi. Kraudlending modeli esa moliyaviy vosita sifatida kredit berish tamoyiliga asoslanadi: investorlar loyiha mualliflariga qarz beradi va ular foiz bilan qaytariladi. Ba'zi hollarda, ayniqsa ijtimoiy yo'nalishdagi loyihalar uchun, foizsiz kreditlash amaliyoti ham mavjud.

Jadvalda keltirilgan yirik xalqaro platformalar – GoFundMe, Kickstarter, Seedrs, Crowdcube, Lending Club va boshqalar – har bir kraudfunding turi uchun global tajribada qo'llanilayotgan eng mashhur onlayn xizmatlar bo'lib, ular loyihalar va ishtirokchilar o'rtasida ishonchli vositachilikni ta'minlaydi. Shu orqali mazkur jadval kraudfunding mexanizmlarining turlari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari hamda qo'llanilish doirasi bo'yicha mukammal tasniflovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yevropa mamlakatlarida kraudfunding moliyalashtirishning muqobil va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan shakli sifatida iqtisodiy tizimga faol integratsiyalashmoqda. Bu hududda mazkur mexanizm kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hamda ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirishda samarali vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. Yevropa Ittifoqi tomonidan kraudfunding faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar, xususan, "European Crowdfunding Service Providers Regulation" (ECSPR) reglamenti, mazkur tizimning barqarorligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

2023-yil oxiriga kelib, Yevropa Qimmatli qog'ozlar bozori boshqarmasi (ESMA) tomonidan European Crowdfunding Service Providers Regulation (ECSPR) doirasida akkreditatsiyadan o'tgan kraudfunding xizmatlari provayderlari soni 159 taga yetdi. Ularning 98 tasi faoliyatlari bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar (ESMA report, 2024) tahlili natijasida muhim statistik tendensiyalar aniqlangan.

Tadqiqot qamroviga kirgan 98 ta xizmat ko'rsatuvchi subyektlardan 81 tasi faqat bitta moliyalashtirish turini, qolgan qismi esa ikki yoki undan ortiq moliyaviy modelni taklif qilgan. Jumladan, 53 ta platforma kredit asosidagi kraudfundingni, 30 tasi qarz asosidagi, 25 tasi aksiyalar asosidagi, yana 17 tasi esa boshqa shakllardagi moliyalashtirish xizmatlarini amalga oshirgan.



2-rasm. Yevropa ittifowadi kraudfunding moliyalashtirish turlari bo'yicha taqsimoti (2023) (ESMA report, 2024)

Keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor bersak (2-rasm), kreditga asoslangan moliyalashtirish umumiy loyihalarning taxminan 65 foizini tashkil etib, eng keng tarqalgan model sifatida ajralib turadi. Undan keyingi o'rinlarda qarzga asoslangan loyihalar (17%) hamda kapital (aksiyaviy) asosidagi loyihalar (6%) joylashgan. 2023 yilda 5000 dan ortiq kreditga asoslangan loyiha


amalgama oshirilgan bo'lib, ularda 1,7 milliondan ortiq investorlar ishtirok etgan. Har bir bunday loyiha uchun yig'ilgan o'rtacha mablag' 15 ming yevroni tashkil etgan, bu esa qarz asosidagi loyihalar uchun 53 ming yevro va aksiyadorlik asosidagi loyihalar uchun 46 ming yevroni tashkil etgan ko'rsatkichlarga nisbatan ancha kam.

Investorlar tarkibida esa chakana (retail) investorlar yetakchilik qilgan bo'lib, ular umumiy ishtirokchilarning 87 foizini tashkil qilgan. 12% investorlar ECSPR doirasida "murakkab" sarmoyadorlar sifatida tasniflangan bo'lsa, atigi 1% investorlar "professional" maqomiga ega bo'lgan (MiFID me'zonlariga ko'ra).

Sanoat tarmoqlari kesimida qaralganda, kraudfanding orqali eng ko'p sarmoya jalb etilgan yo'nalish professional, ilmiy va texnik xizmatlar sohasi bo'lib, 390 million yevroga teng investitsiya jalb qilingan. Bu umumiy moliyalashtirish hajmining uchdan birini tashkil etadi. Ushbu sohalarga boshqaruv, yuridik xizmatlar, reklama, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat kiradi. Qurilish sohasi esa 240 million yevro bilan ikkinchi o'rinda qayd etilgan. Biroq, eng ko'p investor jalb qilingan soha ko'chmas mulk sektori bo'lib, u yerda 380 mingdan ortiq investorlar ishtirok etgan.

Moliyaviy jihatdan qaralganda, chakana investorlar o'rtacha 590 yevro sarmoya kiritgan bo'lsa, "murakkab" sarmoyadorlar 990 yevro, professional investorlar esa 4200 yevrogacha sarmoya kiritgan. Bu esa moliyaviy resurslar ko'lamini va investorlar tipologiyasining kraudfanding modelida qanday taqsimlanganini aks ettiradi.

AQSh kraudfanding sohasida global yetakchi bo'lib, moliyalashtirish modellari va platformalar xilma-xilligi jihatidan boshqa mamlakatlardan sezilarli ustunlikka ega. Mamlakatda kraudfanding nafaqat startaplarni qo'llab-quvvatlash, balki ijodiy loyihalar, ijtimoiy tashabbuslar va kichik bizneslar uchun moliyaviy manba sifatida keng qo'llaniladi. 2023-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra (3-rasm), AQSh bozorida kraudfandingning turli modellariga to'g'ri kelgan mablag'lar ulushi quyidagicha taqsimlangan bo'lib, bu jarayon mamlakatdagi investorlar faolligi va jamiyatdagi kraudfanding madaniyatining yuksak darajada shakllanganini yaqqol namoyon etadi.




3-rasm. AQShda kraudfanding turlari bo'yicha mablag'lar ulushi (2023)
(globalgrowthinsights.com, 2024)

2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, AQSh kraudfanding bozorida eng katta ulushni mukofot asosidagi kraudfanding (45%) egalladi, bu ijodiy va mahsulotga yo'naltirilgan loyihalarning yuqori talabga ega ekanini ko'rsatadi. Aksiya asosidagi model (30%) esa startap va kichik bizneslar uchun muhim sarmoya manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Xayriya asosidagi kraudfanding (18%) asosan ijtimoiy va favqulodda holatlar bilan bog'liq tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda ishlatiladi. Qolgan 7% esa qarz asosidagi va boshqa kamroq

qo'llaniladigan modellar hissasiga to'g'ri keladi. Bu taqsimot AQShda kraudfandingning ko'p qirrali va rivojlangan ekotizimga aylanganini ko'rsatadi.

Quyidagi infografikada 2023-yilda AQShda kraudfanding orqali jalb qilingan mablag'larning turli loyiha turlari bo'yicha taqsimoti aks ettirilgan (4-rasm). Grafikdan ko'rinib turibdiki, eng katta ulushni o'yinlar (xususan stol va video o'yinlar) tashkil etgan bo'lib, texnologiya va dizayn sohalari ham yetakchi o'rinlarda qayd etilgan. Bu holat AQShda kraudfanding mexanizmlarining ijodiy va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muhim rolini yaqqol namoyon etadi.



4-rasm. 2023-yilda AQShda kraudfanding mablag'larining loyihalar bo'yicha taqsimoti
(tcf.team, 2023)

2023-yilda Xitoyda kraudfanding bozori raqamli iqtisodiyotning kengayishi, aholining moliyaviy texnologiyalarga bo'lgan ishonchi va onlayn to'lov tizimlarining ommalashuvi natijasida sezilarli darajada o'sdi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari, innovatsion startaplar hamda ijtimoiy tashabbuslar uchun kraudfanding barqaror moliyalashtirish manbai sifatida shakllana boshladi.

Grand View Research tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Xitoyda kraudfanding bozorining umumiy hajmi 2024-yilga kelib 103,1 million AQSh dollariga yetgan. Bu natija, 2023-yildagi sarmoya hajmidan yuqori bo'lib, bozordagi o'sish tendensiyasining mustahkam asosga ega ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, 2030-yilga kelib, bozor hajmi 272,3 million dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu o'sish sur'ati yildan-yilga o'rtacha 18% (CAGR 2025–2030) bo'lishi kutilayotgani bilan izohlanadi. Bunday yuqori o'sish ko'rsatkichlari, bir tomondan, Xitoy hukumatining raqamli innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashi, ikkinchi tomondan esa aholining innovatsion moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan talabining ortib borayotgani bilan bog'liq.

Ayni paytda Xitoyda kraudfandingning eng ommabop turlari qatoriga qarz asosidagi (loan-based) va aksiyalar asosidagi (equity-based) modellar kiradi. Qarz asosidagi platformalar eng katta daromad keltiruvchi segment bo'lib qolayotgan bo'lsa, aksiyalar asosidagi model esa eng tez o'sayotgan segment sifatida ajralib turmoqda. Bundan tashqari, mukofot asosidagi (reward-based) va ehson asosidagi (donation-based) kraudfanding ham ijtimoiy tarmoqlar orqali muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, ayniqsa JD Crowdfunding va Qingsongchou kabi yirik platformalar orqali. Xitoyda kraudfanding bozori 2023-yilda strategik muhim moliyaviy instrument sifatida shakllandi. Yaqin yillarda bu sohaning tarmoq va texnologiyalar bilan uzviy integratsiyalashuvi hisobiga yanada kengayishi kutilmoqda. 2023-yilgi global tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, kraudfanding bozori jahonda jadal sur'atlarda rivojlanib, moliyaviy ekotizimning ajralmas va innovatsion qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, Yevropa, AQSh va Xitoy

tajribasi bu moliyalashtirish modelining har xil geografik, iqtisodiy va institutsional sharoitlarda qanday samarali ishlashini ko'rsatib berdi. Bu mamlakatlarda kraudfanding nafaqat startaplar va kichik bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi, balki investorlar va jamiyat o'rtasida ochiq, shaffof hamkorlik tamoyillarini mustahkamladi.

Umuman olganda, kraudfanding – an'anaviy moliyalashtirish vositalariga muqobil bo'lib, keng jamoatchilikni jalb etuvchi va ishtirokchilarning bevosita aloqasiga asoslangan moliyaviy model sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Bu yondashuvning eng muhim afzalliklari sifatida tezkorlik, demokratik moliyaviy ishtirok va innovatsiyalarga ochiqlikni ko'rsatish mumkin. Natijada, kraudfanding zamonaviy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kraudfanding – zamonaviy moliyalashtirish mexanizmi sifatida xalqaro amaliyotda o'zining moslashuvchanligi, ochiqligi va samaradorligi bilan ajralib turadi. Xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Xitoy tajribasi kraudfandingning turli iqtisodiy, institutsional va madaniy muhitlarda qanday muvaffaqiyatli joriy etilayotganini yaqqol namoyon etadi. Tadqiqotda aniqlanishicha, ushbu model kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish hamda fuqarolik jamiyati ishtirokini kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Shuningdek, kraudfanding moliyalashtirishning an'anaviy shakllaridan farqli o'laroq, investor va loyiha tashabbuskorlari o'rtasida vositachilarsiz va ishonchga asoslangan moliyaviy aloqalarni shakllantiradi. Bu esa platformalarning shaffofligi, ishtirokchilarning motivatsiyasi va loyihalarning ijtimoiy mazmuni bilan chambarchas bog'liqdir. Kraudfanding mexanizmlari orasida mukofot, aksiyaviy, qarz va xayriya asosidagi modellar o'z funktsionalligi va maqsadli auditoriyasiga ko'ra turlicha afzalliklarga ega bo'lib, bu tizimni ko'p qirrali va keng qo'llaniladigan vositaga aylantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, kraudfanding nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilishda muqobil yechim, balki inklyuziv va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda strategik ahamiyatga ega vositadir. Rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun esa, kraudfandingni joriy etish moliyaviy tizimni diversifikatsiyalash, startap ekotizimini rivojlantirish va aholi o'rtasida moliyaviy ishtirokchilik madaniyatini shakllantirish yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

- Alegre I., Moleskis M. (2016). *Crowdfunding: A review and research agenda. Journal of Business Research*, 69(11), 4794–4798.
- Belleflamme P., Lambert T., Schwienbacher A. (2013). *Individual crowdfunding practices. Venture Capital*, 15(4), 313–333.
- ESMA (2024) *Market Report on Crowdfunding in the EU 2024*
- Jovanovic T. (2019). *Crowdfunding: What do we know so far? Facta Universitatis, Series: Economics and Organization*, 16(1), 1–13.
- Matusik S.F., Jones J.M. (2019). *The crowdfunding paradigm: Redefining the intermediary role. Academy of Management Perspectives*, 33(4), 480–499.
- Miglo A. (2021). *Crowdfunding: Definitions, foundations and framework. Journal of Corporate Finance Research*, 21(2), 4–17.
- Акст Р. (2017) *Анатомия краудфандинга или Феномен ICO. М.:Изд. решения*, 868 с.
- Globalgrowthinsights.com. (2024). *Global Growth Insights. [online] Available at: <https://www.globalgrowthinsights.com/market-reports/crowdfunding-market>*
- Tcf.team. (2023). *Indiegogo and Kickstarter Stats: 1st Semester of 2023. [online] Available at: <https://www.tcf.team/blog/indiegogo-and-kickstarter-stats>*